# XALQ DEPUTATLARI QIZIRIQ TUMANI KENGASHINING QARORI

190800, Qiziriq tumani, Ibn Sino ko'chasi 13-uy, tel.: 0(376) 35-91-181, fax: 0(376) 35-91-800

2023 - yil 9 - fevral VI-60-31-8-113-K/23 Qiziriq tuman hokimligi

## Qiziriq tumanidagi mahalla fuqarolar yig‘inlari chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida”gi qonunning 6-, 24-moddalariga hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 16-avgustdagi “Mahalla institutining jamiyat hayotidagi rolini mustahkamlash va moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-353-son qaroriga asosan, shuningdek tumandagi mahalla fuqarolar yig‘inlarining iltimosnomalarini ko‘rib chiqib, xalq deputatlari Qiziriq tumani Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 16-avgustdagi “Mahalla institutining jamiyat hayotidagi rolini mustahkamlash va moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-353-sonli qarori va tumandagi mahalla fuqarolar yig‘inlarining iltimosnomalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tumandagi 31 ta mahalla fuqarolar yig‘inlarining chegaralari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi matbuot xizmati (A.Bo‘riyev) “Taraqqiyot” gazetasi (Ch.Alimov)ga xalq deputatlari Qiziriq tumani Kengashining mazkur qarori rasmiy tuman hokimligi veb-saytida e’lon qilinsin.

4. Qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

5. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

**Sessiya raisi** **T.Almuratov**

Xalq deputatlari Qiziriq tuman
Kengashining
2023 yil 9 fevraldagi
VI-60-31-8-113-K/23-son qaroriga
1-ilova

# Qiziriq tumani ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to'g'risida

## M A ` L U M O T

| Tartib raqami | Ma'muriy hududiy birliklar nomi | Umumiy perimetr (metr) | Umumiy maydoni (gektar) |
|---|---|---|---|
| 1 | Tinchlik MFY | 17483,80 | 1545,32 |
| 2 | Xomkon MFY | 16771,51 | 1561,57 |
| 3 | Istiqlol MFY | 13815,04 | 1020,85 |
| 4 | Yetimqum MFY | 15842,98 | 1284,45 |
| 5 | Gilambob MFY | 17421,97 | 930,97 |
| 6 | Yangi kent MFY | 12863,25 | 919,65 |
| 7 | Rabotak MFY | 6973,75 | 226,14 |
| 8 | Yangi turmush MFY | 6633,10 | 162,15 |
| 9 | Qishloqozon MFY | 21928,78 | 1138,18 |
| 10 | Xalqobod MFY | 16892,66 | 1326,99 |
| 11 | Zartepa MFY | 23222,78 | 1418,89 |
| 12 | Kunchiqish MFY | 11488,76 | 781,37 |
| 13 | Zarbdor MFY | 19521,94 | 1800,28 |
| 14 | Istara MFY | 18973,01 | 2024,10 |
| 15 | Bog‘iston MFY | 20190,08 | 1202,34 |
| 16 | Karmaki MFY | 22988,29 | 1415,32 |
| 17 | Yakkaterak MFY | 24802,71 | 2617,45 |
| 18 | Gulzor MFY | 13995,40 | 969,96 |
| 19 | Shodlik MFY | 4599,43 | 120,58 |
| 20 | Do‘stlik MFY | 3692,64 | 83,98 |
| 21 | Gulobod MFY | 19640,88 | 1586,33 |
| 22 | Zarobod MFY | 9777,62 | 381,08 |
| 23 | Yangi xayot MFY | 14125,14 | 893,98 |
| 24 | Mustaqillik MFY | 13890,37 | 762,99 |
| 25 | Yangiobod MFY | 20736,29 | 2189,51 |
| 26 | Takiya MFY | 25758,02 | 2473,21 |
| 27 | Navro‘z MFY | 17983,44 | 1391,88 |
| 28 | Buyuk kelajak MFY | 38536,19 | 3555,02 |
| 29 | Bog‘bonlar yurti MFY | 18838,62 | 1667,55 |
| 30 | Qorasuv MFY | 18084,74 | 1614,53 |
| 31 | Oqjar MFY | 12351,84 | 798,12 |
| | **Qiziriq** | **134324,61** | **39864,75** |